
Farg'ona shahrida yana bir "Ziyo maskani" foydalanishga topshirildi

Ma'lumki, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, yoshlarning bugungi islohotlar mazmun-mohiyatini to'la anglab yetishlari, ularga yaratilib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishlari, eng asosiysi yoshlarning o'z hayotidan rozi ekanliklarini ta'minlash mahallalardagi yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Farg'ona shahrida ham yetakchilar tomonidan mahallalarda yoshlar muammolarini o'rganish, ularning sportga, kitobga bo'lgan muhabbatini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shahrimizdagi "Nodirabegim" mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchisi Murodjon Mamaro'ziyevning mahalla hududida yoshlar uchun ziyo maskani bo'lgan "Book cafe" tashkil etish haqidagi tashabbusi shahar hokimligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Bugun mahalliy tadbirkor Avazbek Saidjonov tomonidan qurib bitkazilgan ziyo maskanining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari hamda keng jamoatchilik vakillari, bir guruh kitobsevar yoshlar ishtirok etdilar. "Nuroni" jamg'armasi Farg'ona shahar bo'limi raisi Akramjon Yulbarsov tashabbuskor yoshlar va tadbirkorlarning ezgu tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi.

Endilikda yoshlar mazkur ziyo maskanida o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlarini mutolaa qilishlari va bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlari mumkin bo'ladi.

Ochilish marosimi davomida estrada xonandalari ishtirokida gala konsert namoyish etildi. Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan interfaol tanlovlar va animatsion tomoshalar ishtirokchilarga olam-olam quvonch bag'ishladi.

2023-05-13 11:28:46